O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT VILOYATI
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 95 144-43-56, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 09-01-2026 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

271544 - SONLI

Obyekt nomi: "Yangi avlod" maxsus sanoat zonasi hududida irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini qurish hamda rekostruktsiya qilish (1-bosqich)	
Buyurtmachi:	YANGI AVLOD MAXSUS SANOAT ZONASI BOSHQARUVCHI KOMPANIYASI MCHJ
Bosh loyihachi:	"SANGZOR PROJECT INVEST" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	101195

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagi 138-sonli Toshkent shahrida “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasini tashkil etish to’g’risidagi qarori.

1.2. Loyiha topshirig’i “Yangi avlod” MSZ boshqaruvchi kompaniya MCHJ bosh direktori v.b. tomonidan 2025-yil iyul oyida tasdiqlanib, tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan.

1.3. “ABSOLYUT KLASSIK” MCHJ tomonidan 2025-yili ishlab chiqilgan hududning muhandislik-geologik tadqiqotlar xulosasi.

1.4. Qurilish va uy joy kommunla xo’jaligi vazirligi Toshkent shahar boshqarmasining 2025-yil 29 maydagi 1726-1726292-222883-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig’i.

1.5. O’zbekiston Respublikasi Suv xo’jaligi Vazirligi Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi O’rta Chirchiq tumani “Suv yetkazib berish xizmati” DM tomonidan 2025-yil, 25-iyunda berilgan 82/07-77-sonli dalolatnomasi.

1.6. O’zbekiston Respublikasi Suv xo’jaligi Vaziri birinchi o’rinbosari tomonidan tasdiqlangan, “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi ekspeditsiyasi tomonidan 2025-yil 7-aprelda berilgan 82/01-23-15-120-sonli texnik shart.

1.7. “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasini vakillari tomonidan 2025-yil 25-iyunda Toshkent shahrida tasdiqlangan dalolatnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko’ra “”Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi hududida irrigatsiya va meleoratsiya tarmoqlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish” obyektining elektron shaklda taqdim qilingan loyiha, smeta-hujjatlari va loyiha oldi hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining shartlari.

- Me’yoriy shamol tezligi bosimi – 0,38 kPa (38 kg/m^2);
- Me’yoriy qor yuki – 0,50 kPa (50 kg/m^2);
- Tuproqning seysmik xususiyatlariga ko’ra toifasi – II toifa;
- Qurilish maydonining seysmikligi – 8 ball;
- Tuproq muzlash qatlamining normativ chuqurligi – 0,70 metr.

3.2. Loyiha haqida qisqacha ma’lumot.

Loyiha ishida quyidagi Kanallarni rekonstruksiya qilish va qurish loyihasi tarkibiga taqsimlash tarmog‘i kollektorlariga quyidagilar kiradi:

Asosiy kanallar;

RB-5 kanali – rekonstruksiya qilinib, uzunligi 1,80 km, hisobiy uzatishi Q=15 m3/s. Kanal yonbag‘irlari va tubini mustahkamlash talab etiladi beton qoplamadan va zamonaviy materiallardan foydalanish rejalashtirilgan.

Jugurek No1 kanali - yangi qurilish bo’lib, uzunligi - 2,20 km, hisobiy uzatishi Q = 2,0 m3/s. Kanalni qoplashning zamonaviy usullari va filtrlashdan himoyalash ishlari nazarda tutilgan.

Tegirmon kanallari – rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan bo’lib, uzunligi 1,1 km, hisobiy uzatishi Q = 1,0 m3/s. Qoplamani beton qoplama bilan kuchaytirish va filtrlashdan qo‘shimcha himoya qilish rejalashtirilgan.

2-sonli Jugerek kanali - yangi qurilish bo’lib, uzunligi 0,4 km, hisobiy uzatishi Q=1,0 m3/s. Beton qoplama va mustahkamlash ko‘zda tutilgan.

Kollektorlar.

"Oxunboboyev" kollektori - yangi qurilish bo’lib, uzunligi 5,40 km, Q = 0,2 m3/s. Tuproq o‘zanini zamonaviy materiallar bilan mustahkamlash nazarda tutilgan.

RB-5 tushurgi kollektori – rekonstruksiya qilinib, uzunligi 2,25 km, shu jumladan trassani ko‘chirish 1,5 km, rekonstruksiya qilinadigan uchastka 0,75 kmni tashkil etadi. Qoplamani beton qoplama bilan kuchaytirish loyihalangan.

"Yangi avlod-1" kollektori - yangi qurilish bo’lib, uzunligi 1,3 km. Yonbag‘rlari va tubini beton qoplama bilan mustahkamlashda zamonaviy yechimlarni qo‘llash ko’zda tutilgan.

Temir yo‘l tushurgi kollektor - yangi qurilish bo’lib, uzunligi 2,7 km. Huddi shunday, qoplama va himoya filtratsiya himoya qilish rejalashtirilgan.

Tugatilayotgan tarmoqlar;

-Temir yo‘l tushurgi - 1 - 0,73 km.
-Temir yo‘l tushurgi - 2 - 0,53 km.
-Oxunboboyev tushurgi - 1 - 1,25 km.
-Bektemir tushurgi - 3,00 km.
-Oxunboboyev tushurgi - 1 - 1,25 km.
-Temir yo‘l tushurgi - 1-1 - 1,0 km.
-RK-5 tushurgi - 1 - 0,86 km.

Ko‘p sonli inshootlar va loyihalashtirilayotgan taqsimlash tarmog‘ining uzunligi, barcha ishlar majmuasi bosqichma-bosqich amalga oshirish va oqilona o‘zlashtirishni ta’minlash investiv ravishda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichga eng ustuvor yaxshilash uchun asosiy

ahamiyatga ega obyektlar loyiha hududida suv ta’minoti va drenaj: rekonstruksiya uzunligi 1,80 km bo‘lgan RK-5 kanalining hisobiy suv uzatishi Q =15 m3/s, shuningdek, "Yangi" kollektor uchastkasining yangi qurilishi “Avlod-1” uzunligi - 0,93 km. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish suv xo‘jaligi tarmog‘ini modernizatsiya qilishni boshlash imkonini beradi. Eng muhim elementlarni qo‘llab-quvvatlagan holda loyihasini ishlab chiqib, keyingi bosqichlar uchun zamin yaratadi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Mazkur obyektida muhandislik tarmoqlari talab etilmaydi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent viloyati filialining 2025-yil 12-iyundagi 01-02/01-4577 -sonli xulosasi.

5.2. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish to’g’risida 2025-yil 20-apreldagi 20108-sonli shartnoma.

5.3. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **10 901 263 379** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

1 937 515 090 so'mga kamaytirilib, **8 963 748 289** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **8 003 346 687** so'm

QQS: **960 401 602** so'm

Qiymat iqtisod qilinishiga, elementlar resurs me’yorlari standartlarini, mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlarini, asosiy qurilish materiallari narxlarini, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va boshqalarni aniqlashtirish orqali erishildi.

6.1. Taqdim etilgan hujjatlarni lokal xulosalar bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish jarayonida loyiha-smeta hujjatlariga o‘zgartirish, qo‘shimcha va tuzatishlar kiritildi.

6.2. Hujjatlar ekspert tekshiruvi uchun buyurtmachining sharhlarisiz taqdim etilgan.

6.3. Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e’tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko‘rsatmalar asosida (loyihachi tashkilot tomonidan) smeta hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritgan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot o’z tomonidan berilgan javoblar uchun mas’ul va javobgardirlar.

6.4. *Yer ishlarini bajarishdan oldin, kutilmagan holatlarning oldini olish uchun, mavjud bo'lgan yer osti muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarining haqiqiy joylashuvini, mahalliy ekspluatatsiya xizmatlari vakillari bilan aniqlash zarurligi ta'kidlanadi.*

6.5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579 – sonli qaroriga binoan, ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e’tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko‘rsatmalar asosida loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritib tasdiqlangan holda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot o’z tomonidan berilgan javoblar uchun mas’ul va javobgardirlar.

6.6. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqatda (po faktu) bajarilgan ishlar va nazorat o‘lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.7. Ekspertiza natijalari asosida tavsiya etilgan qiymat shartnoma tuzish va pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi bo’yicha o’zaro hisob-kitoblarni amalga

oshirish uchun asos bo’la olmaydi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 31-yanvardagi 46 – son qarori va SHNQ 4.01.16-09 ga asosan, amaldagi meyoriy hujjatlar talablari va boshqalarni hisobga olgan holda ishlarning qiymat buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

6.8. Buyurtmachi o’z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-maydagi “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 321 – sonli qarori bandlarida keltirilgan talablar va ko’rsatmalarga muvofiq o’ziga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni to’liq bajarishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda ““Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi hududida irrigatsiya va meleoratsiya tarmoqlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish” obyektining loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Qozoqov Azimjon A’zamjon O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Fayzulloyev Sadriddin Xayrullo O‘g‘li, Akramova Sevara Xayrulla Qizi